

## **SAMARQAND TARIXIY JARAYONLARINI O'RGANISHGA BAG'ISHLANGAN TADQIQOTLAR (ALEKSANDR MORRISON ILMIY FAOLIYATI MISOLIDA)**

**Imomov Ulug'bek Ismoilovich**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

**“Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrası tayanch doktoranti**

**E-mail: imomovulugbek59@gmail.com**

**Orcid: 0009-0004-8346-6179**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.18698167>**

**Annotatsiya:** Samarqand nafaqat Markaziy Osiyo hududida, balki jahon miqyosida ham eng qadimiy shaharlardan biri sifatida e'tirof etiladi hamda umuminsoniy sivilizatsiya taraqqiyotida muhim o'rin tutgan yirik siyosiy va madaniy markazlardan biri hisoblanadi. Mazkur shahar jahon tarixiy jarayonlarida o'ziga xos va beqiyos ahamiyat kasb etgan. Ko'p asrlik tarixiy merosga ega bo'lgan ushbu maskan bugungi kunda ham turli rivojlangan davlatlarning yetakchi ilmiy markazlari va zamonaviy tarix institutlarida keng ko'lamda o'rganilayotgan dolzarb tadqiqot obyektiga aylangan. Mazkur maqolada Aleksandr Morrisonning Samarqand tarixi yuzasidan ilgari surgan qarashlari hamda ilmiy xulosalari manbaviy asosda tahlil etiladi va tarixshunoslik nuqtayi nazaridan baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Samarqand, Aleksandr Morrison, Markaziy Osiyo, Konstantin Petrovich von Kaufman, Jo'rabek, Bobobek, milliy ozodlik harakatlari, tarixshunoslik.

**Kirish.** Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan va bebaho hissa qo'shgan Samarqand uzoq yillardan buyon jahon ilmiy jamoatchiligi, tarixchi va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Milliy tarixshunoslik doirasida O'zbekistonning, xususan Samarqandning Markaziy Osiyoning ichki hamda tashqi siyosiy-iqtisodiy aloqalar tizimidagi o'rnini xorijiy ilmiy manbalar asosida tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Oksford universiteti tarix fakulteti tadqiqotchisi Aleksandr Morrison imperiyalar va mustamlakachilik tarixini o'rganuvchi olim sifatida tanilgan bo'lib, uning ilmiy izlanishlari asosan Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo hududlariga kirib kelishi va mazkur jarayonning siyosiy hamda ijtimoiy oqibatlarini o'rganishga qaratilgan.

Morrison o'z tadqiqotlarida quyidagi xulosalarni keltiradi: u Britaniya Hindistoni hamda Rossiya Turkistoni (xususan, Samarqand viloyati) hududlarida olib borilgan mustamlakachilik siyosatini qiyosiy tahlil qilganini, natijada aniqlangan o'xshashlik va farqlar kutilganidan ham murakkab va e'tiborga molik ekanini ta'kidlaydi. Har ikkala holatda ham harbiy tuzilmalar mintaqaviy boshqaruvda hal qiluvchi rol o'ynagan. Shuningdek, Turkistondagi rus ma'muriyati ham, Hindistondagi ingliz mustamlakachilari ham yangi egallangan hududlar to'g'risida ishonchli ma'lumot to'plashda qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lib, bu muammo ko'pincha mahalliy vositachilar va agentlar orqali hal etilgan [1].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Rossiya imperiyasi istilosidan avval Buxoro amirligi tarkibidagi yirik siyosiy va ma'muriy markazlardan biri bo'lgan Samarqandning egallanishi O'rta Osiyoning ruslar tomonidan bosib olinishi jarayonining ikkinchi bosqichida amalga oshirilgan. Mazkur harbiy-siyosiy harakatlar Aleksandr II hukmronligi davriga to'g'ri keladi va imperiyaning mintaqadagi strategik manfaatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Aleksandr Morrison o'z tadqiqotlarida Samarqandning rus qo'shinlari tomonidan egallanishini imperiya siyosatining muhim bosqichi sifatida baholaydi. Uning qayd etishicha, Samarqandning zabt etilishi Rossiya uchun nafaqat harbiy, balki ramziy-siyosiy ahamiyatga ham ega bo'lgan.

Xususan, Konstantin Petrovich von Kaufman bu yurish orqali o'zini tarixiy zabt etuvchilar an'anasining davomchisi sifatida ko'rsatishga intilgan.

Shuningdek, rus harbiy-ma'muriy doiralari shahar boshqaruv tizimi va ichki siyosiy vaziyatini oldindan o'rganishga alohida e'tibor qaratganini ko'rish mumkin. Bu holat Rossiya imperiyasining istilo jarayonini puxta rejalashtirganini va razvedka hamda mahalliy sharoitni tahlil qilishga katta ahamiyat berganini ko'rsatadi. Ayrim manbalarda Samarqandning temuriylar davriga oid boy madaniy merosi va tarixiy nufuzi e'tiborga olinib, u ramziy ma'noda "O'rta Osiyoning Moskvasi" sifatida ta'riflangan. Bu esa shaharni egallash imperiya uchun nafaqat hududiy kengayish, balki tarixiy-madaniy ustunlikni namoyish etish vositasi bo'lganini anglatadi. Demak, bosqinchilikka tayyorgarlik jarayonida rus ma'muriyati Samarqanddagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni turli manbalar va vositalar orqali sinchkovlik bilan o'rgangan hamda strategik jihatdan puxta rejalashtirilgan harakatni amalga oshirgan [3].

Aleksandr Morrison Samarqandning egallanishi bilan bog'liq voqealarning aniq tafsilotlarini tahlil qilib, dastlab shahar deyarli jiddiy qarshiliksiz bosib olinganini ta'kidlaydi. Uning qayd etishicha, Konstantin Petrovich von Kaufman Samarqandda Baron Stempel qo'mondonligi ostida taxminan 500 kishilik garnizonni qoldirib, o'zi Kattaqo'rg'on yaqinidagi Zirabulok tepaligi hududida Buxoro amirligi qo'shinlariga qarshi harbiy harakatlarni davom ettirgan. Tadqiqotchining fikricha, ruslarning Samarqandni nisbatan oson egallashiga asosiy sabab amirlikning bosh qo'shinlari shaharda emas, balki Cho'pon-ota tepaligi atrofida joylashtirilganligi bilan izohlanadi. Aynan shu strategik balandlikda amirlik qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi rus qo'shinlari uchun Samarqandni egallash yo'lini ochgan [4].

Tadqiqot natijalarini davom ettirar ekan, muallif 1868-yil 1-may kuni Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan Samarqand egallangach, fon Kaufman shahar hamda unga tutash hududlardagi mahalliy amaldorlar o'z lavozimlarida qoldirilishini, aholi esa mavjud soliqlarni imperiya xazinasiga to'lashda davom etishini e'lon qilganini qayd etadi. Biroq o'sha yil soliqlar to'liq yig'ib olinganiga qaramay, chor ma'muriyati tomonidan qo'shimcha soliq talablari ilgari surilgan. Mahalliy boshqaruv vakillari va mustamlaka ma'muriyati tomonidan mehnatkash aholiga nisbatan qo'llangan iqtisodiy bosim va ijtimoiy zulm oxir-oqibat Samarqandda xalq qo'zg'olonining yuzaga kelishiga zamin yaratgan [5].

Qo'zg'olonga dastlab Shahrisabz va Kitob beklari – Jo'rabek hamda Bobobek, keyinchalik esa Abdulmalik To'ra rahbarlik qilishgan. Qo'zg'olonchilar rus garnizoni joylashgan qal'aga keskin hujum uyushtirib, shaharda keskin vaziyat yuzaga keltirdilar. Biroq 1868-yil 4-iyunda Zirabulok tepaligi yaqinidagi jangda Buxoro amirligi qo'shinlarining mag'lubiyati haqida xabar kelgach, Shahrisabz tomonga rus qo'shinlari hujum qilayotgani haqidagi yolg'on mish-mishlar tarqaldi. Shu sababli ayrim qo'zg'olonchilar Samarqandni tark etish zarur, degan qarorga kelishdi. 1868-yil 8-iyunda Konstantin Petrovich von Kaufman buyrug'i bilan Samarqand qayta egallandi va shaharni jazolash maqsadida harbiy kuchlar tomonidan keng ko'lamli talafotlar yetkazildi [6].

1868-yil 9-iyundan boshlab Samarqandda fojeali voqealar yuz berib, minglab odamlar halok bo'ldi. Bir necha kun davom etgan jazolash amaliyotlari natijasida ko'plab fuqarolar sud-tergovsiz qatl etildi, qo'zg'olon faol ishtirokchilaridan bir guruhi esa Sibir hududlariga surgun qilindi. Rossiya ma'muriyati Samarqandni egallaganidan so'ng, Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Zarafshon okrugi tashkil etilib, Samarqand uning ma'muriy markazi etib belgilandi. Aleksandr Morrisonning qayd etishicha, Zarafshon okrugi Rossiya imperiyasi

tomonidan hudud zabt etilganidan so'ng darhol rasmiylashtirilmagan bo'lsa-da, 1870-yillardan boshlab uning boshqaruvi imperiya ma'muriy tizimi qo'lga o'tgan va 1886-yilga kelib ma'muriy jihatdan to'liq qayta tashkil etilgan [7].

**Natijalar va muhokama.** Aleksandr Morrison o'z tadqiqotlarida Samarqand hududidagi Rossiya imperiyasi siyosatini Britaniya Hindistonidagi mustamlakachilik amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qiladi. U, xususan, Samarqand va uning atrofida yashagan hind savdogarlari hamda muhojirlar haqida ham ma'lumotlar keltiradi. 1870-yilda o'tkazilgan viloyat statistikasiga ko'ra, Kattaqo'rg'on shahrida 33 nafar hindu istiqomat qilgan bo'lib, ulardan biri Jammudan, qolganlari esa Shikarpurdan kelgan. Ular orasida sakkiz kishi qarz berish bilan shug'ullangan, biri diniy arbob, boshqalari savdogar va xayriyachi sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu guruh 1840-yillarda, ya'ni rus istilosidan avval mintaqaga ko'chib kelgan. Bundan tashqari, Payshanba bozori kabi kichikroq hududlarda ham o'nlab hind savdogarlari yashagan. Tadqiqotchi bu holatni o'sha davrda Rossiya imperiyasi hududlarida minglab hind savdogarlari faoliyat yuritganligi bilan izohlaydi [8].

Morrison shuningdek Rossiya imperiyasi davrida Samarqandda sug'orish tizimlari ustidan nazorat o'rnatish masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi. 1868-yilda rus qo'shinlari shaharni qamal qilgan paytda Konstantin Petrovich von Kaufman Samarqandni suv bilan ta'minlovchi kanallar oqimini o'zgartirish orqali harbiy ustunlikka erishishga uringanini qayd etadi. Bu harakatni u tarixiy manbalarda tilga olingan Asad ibn Abdallah al-Qasrining qamal paytida suvni to'sish taktikasiga qiyoslaydi. Rossiya imperiyasining suv resurslari ustidan nazorat o'rnatish siyosati faqat Samarqand bilan cheklanmagan. Masalan, 1865-yil 27-aprelda Mikhail Chernyaev qo'mondonligidagi qo'shinlar Toshkent tomon yurish qilib, Niyozbek qal'asini egallagan va Chirchiq daryosi bo'yidagi suv inshootlarini buzish orqali shaharni suvsiz qoldirgan. Natijada, Toshkent mudofaasi qisqa vaqt ichida taslim bo'lishga majbur bo'lgan. Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Zarafshon okrugi tashkil etilgach, rus ma'muriyati Zarafshon daryosining yuqori oqimi ustidan to'liq nazoratni qo'lga kiritdi. Bu esa Buxoro amirligi sug'orish tizimlariga bosim o'tkazish va mintaqadagi iqtisodiy-siyosiy ustunlikni mustahkamlash vositasiga aylandi [9].

Yana bir bor ta'kidlash joizki, Turkiston hududida, xususan Samarqand atrofida, asrlar davomida shakllangan dehqonchilik tizimi va u bilan chambarchas bog'liq sug'orish xo'jaligi mintaqqa iqtisodiyotining asosini tashkil etgan. Sug'orish infratuzilmasi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlash, balki mahalliy aholini boshqarish va imperiya ma'muriyati nazoratini mustahkamlash vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Shu maqsadda mintaqada sug'orish ishlariga mas'ul maxsus mansabdorlar faoliyat yuritib, ular asosiy va ikkilamchi kanallarni nazorat qilish, yangi irrigatsiya inshootlari qurilishini rejalashtirish, mavjud tarmoqlarni saqlash va ta'mirlash hamda texnik ko'rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarishgan [10].

Aleksandr Morrison o'z tadqiqotlarida Britaniya Hindistoni hamda Rossiya Turkistoni (xususan, Samarqand viloyati)dagi mustamlakachilik boshqaruv tizimlarini qiyosiy tahlil qilib, ular o'rtasidagi kutilmagan o'xshashliklar va farqlarni ilmiy asosda ko'rsatib beradi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, har ikkala imperiya tajribasida ham harbiy tuzilmalar ma'muriy boshqaruvda muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga, Turkistondagi rus ma'muriyati ham, Hindistondagi ingliz mustamlakachilari ham yangi bosib olingan hududlar to'g'risida ishonchli ma'lumot to'plashda qiyinchiliklarga duch kelgan va bu muammo ko'pincha mahalliy vositachilar hamda agentlar orqali bartaraf etilgan. Bundan tashqari, Morrison Samarqanddagi

Rossiya imperiyasi hukmronligi sharoitida faoliyat yuritgan hind savdogarlari va muhojirlar haqida ham ma'lumotlar keltirib, ularning mintaqa iqtisodiy hayotidagi o'rni va imperiyalararo iqtisodiy aloqalardagi ahamiyatini alohida qayd etadi. Bu kuzatuvlar Samarqandning XIX asrda ham xalqaro savdo va madaniy aloqalar chorrahasida joylashgan muhim markaz bo'lib qolganini tasdiqlaydi [11].

**Xulosa.** Aleksandr Morrison o'z ilmiy izlanishlarida Samarqanddagi Rossiya imperiyasi davriga oid harbiy-byurokratik tizim, mahalliy boshqaruv mexanizmlari, diniy institutlar faoliyati hamda yer egaligi munosabatlarini kompleks tarzda tahlil qiladi. Shuningdek, u sug'orish tizimi kabi muhim iqtisodiy sohalarda olib borilgan siyosatni Britaniya Hindistoni mustamlakachilik boshqaruvi tajribasi bilan qiyosiy usulda o'rganib, ikki imperiya amaliyotidagi o'xshashlik va tafovutlarni ilmiy asosda yoritadi. Nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlardan biri bo'lgan Samarqand tarixi qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha xorijiy tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda. Bu holat shaharning jahon sivilizatsiyasi va tarixiy jarayonlaridagi muhim o'rni bilan izohlanadi. Hozirgi davrda Samarqandning tarixiy merosi va uning siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni tarixshunoslikda keng ko'lamli va chuqur ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylangan.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Aleksandr Morrison. Samarqandda rus hukmronligi 1868-1910. – Nyu-York: Oksford universiteti nashriyoti, 2008. – B.: 20.
2. O'sha manba. – B.: 20.
3. O'sha manba. – B.: 21.
4. O'sha manba. – B.: 21.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. I jild. – Toshkent: 2000. – B.: 124.
6. O'sha manba. – B.: 125.
7. O'sha manba. – B.: 126.
8. Aleksandr Morrison. Turkistonda rus hukmronligi va Britaniya Hindistoni misoli. – London: 2006. – B.: 691.
9. O'sha manba. – B.: 692.
10. Aleksandr Morrison. Samarqandda rus hukmronligi 1868-1910. – Nyu-York: Oksford universiteti nashriyoti, 2008. – B.: 10.
11. O'sha manba. – B.: 11.